

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

2010
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICA UNIVERSITETI

1955
TAKTU
TOSHKENT DAVLAT VOKZALI ACADEMICHESKIY UNIVERSITETI

1955
TDTU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	



EKSPORT SALOHIYATINI BOSHQARISHDA ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchi

Email: khumoyun.kadirov1992@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3928-208X

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonalarining eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatining baholanishi va uning metodologik asoslari tahlil qilingan. Eksport salohiyatining samarali shakllanishi va rivojlanishi korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlari, quvvatlardan foydalanish darajasi, texnologik yangilanishi va ishlab chiqarish samaradorligi kabi mezonlar bilan bevosita bog'liq. Shu sababli, ishlab chiqarish faoliyatini tizimli baholash orqali eksportga yo'naltirilgan resurslardan foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi va strategik boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Maqolada ishlab chiqarish samaradorligini baholashda foydalaniладigan asosiy indikatorlar (ishlab chiqarish quvvati yuklanishi, mahsuldarlik, ishlab chiqarish tannarxi, texnik-modernizatsiya darajasi) keltirilib, ularning eksport salohiyatiga ta'siri kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va eksport samaradorligi o'rtaсидagi bog'liqlikni aniqlash uchun ko'p mezonli tahlil va indekslash usullaridan foydalaniлган. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqarish salohiyatini baholash va undan eksportda foydalanishning ilmiy asoslangan yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksport salohiyati, ishlab chiqarish faoliyati, baholash metodologiyasi, ishlab chiqarish quvvati, samaradorlik koeffitsiyenti, indekslash usuli, strategik boshqaruv, eksportga tayyor mahsulot, texnologik tayyorgarlik.

Abstract: This article examines the methodological foundations for evaluating production activities in managing the export potential of enterprises. Effective export potential depends directly on production capacity, technological readiness, and the efficiency of resource utilization. The study proposes a comprehensive system of indicators for assessing production performance, applying such methods as indexing, multi-criteria evaluation, and efficiency coefficients to determine the effectiveness of export-oriented manufacturing. The findings lead to strategic recommendations for managing production mechanisms that enhance export capacity.

Keywords: export potential, production activity, evaluation methodology, production capacity, efficiency coefficient, indexing method, strategic management, export-ready product, technological preparedness.

Аннотация: В статье рассматриваются методологические основы оценки производственной деятельности в контексте управления экспортным потенциалом предприятий. Эффективное формирование экспортного потенциала напрямую зависит от производственных мощностей, технологической готовности и эффективности использования ресурсов. Предложена комплексная система показателей для анализа производственной эффективности, включая методы индексации, многокритериальной оценки и расчёта коэффициентов эффективности. В результате исследования разработаны стратегические рекомендации по управлению производственными механизмами для усиления экспортного потенциала.

Ключевые слова: экспортный потенциал, производственная деятельность, методология оценки, производственные мощности, коэффициент эффективности, метод индексации, стратегическое управление, продукция экспортной готовности, технологическая готовность.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi zamonda milliy korxonalar uchun xalqaro bozorda muvaffaqiyatli raqobatlashish, eksport salohiyatini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash dolzarb



masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishda korxonalarning mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlari, resurslardan samarali foydalanish darajasi va innovatsion salohiyati muhim o'rinni tutadi. Korxonaning eksport salohiyati ko'p jihatdan uning ishlab chiqarish faoliyatiga, ya'ni ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, zamonaviy texnologiyalar ulushi, mahsulot sifati va innovatsion faolilik kabi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Ushbu omillar bir tomonidan ishlab chiqarish jarayonining texnik va texnologik imkoniyatlarini, ikkinchi tomonidan esa tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini aks ettiradi. Mazkur maqolada aynan yuqorida qayd etilgan ishlab chiqarish faoliyatining asosiy omillari — ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, zamonaviy texnologiyalar ulushi, mahsulot sifati indeksi va innovatsion faolilik asosida eksport salohiyatini baholash va samarali boshqarishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shu orqali ishlab chiqarish faoliyatini strategik boshqarishda qaysi ko'rsatkichlar ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlanadi va ularning eksport faoliyatiga ta'siri baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyatini shakllantirish va samarali boshqarish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda ishlab chiqarish faoliyatining turli jihatlari asosiy omil sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi korxonaning mahsulot yetkazib berish salohiyatini aniqlovchi asosiy mezonlardan biri sifatida ko'riladi. Zamonaviy texnologiyalar ulushi J. Forrester (System Dynamics nazariyasi asoschisi) tomonidan ishlab chiqilgan nazariy asoslarga ko'ra, ishlab chiqarish tizimining dinamik samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Texnologik yangilanish darajasi eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarning sifati, tannarxi va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir etadi. Mahsulot sifati va xalqaro standartlarga muvofiqlik masalalari S. R. Karapetyan tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda eksport faoliyatining barqarorligi va xorijiy bozor talablariga javob berish qobiliyati bilan uzviy bog'liq ekani ta'kidlangan. Uning fikricha, mahsulot sifati indeksi yuqori bo'lgan korxonalar tashqi bozorda ustunlikka ega bo'lmoqda. Innovatsion faolilik esa G. Mensch tomonidan taklif etilgan "innovatsion to'lqinlar nazariyasi" asosida ishlab chiqarish faoliyatining zamonaviylashuvi va bozordagi o'zgarishlarga moslashuv darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida qayd etilgan.

Yuqoridagi manbalar asosida aytish mumkinki, eksport salohiyatini oshirishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi doirasida to'rt omil — ishlab chiqarish quvvati, texnologik yangilanish, mahsulot sifati va innovatsion faolilik alohida e'tiborni talab etadi va ularning har biri strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxonalarning eksport salohiyatini baholashda ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi va ta'sir kuchini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Baholash metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Korxonalarning eksport salohiyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqishda, avvalo, eksport salohiyatini belgilab beruvchi asosiy omillar tanlab olinadi va guruhlanadi. Eksport salohiyatini belgilab beruvchi omillar guruhlari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish salohiyati (4 indikator), moliyaviy salohiyat (6 indikator), bozor salohiyati (3 indikator), inson kapitali va boshqaruv salohiyati (2 indikator), xalqaro standartlarni joriy etish salohiyati (5 indikator).

Ishlab chiqarish salohiyatini baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqichda eksport salohiyatini belgilab beruvchi barcha omillar baholanadi. Dastlab ishlab chiqarish salohiyati aniqlanadi. Korxonalarning eksport salohiyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqishda ishlab chiqarish salohiyatini baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki eksport salohiyati faqat tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish imkoniyati bilan emas, balki mahsulotlarni eksportbop miqdorda, talab etilgan sifatda va belgilangan muddatda ishlab chiqara olish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatini baholash asosida eksportni ta'minlash qobiliyati aniqlanadi. Korxonada mavjud texnologiyalar va ishlab chiqarish quvvatlari eksport uchun zarur miqdorda mahsulotni ishlab chiqara olish imkoniyatini baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, eksport uchun muhim omil bo'lgan xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini aniqlashda ushbu baholash muhim hisoblanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatini baholash jarayonida tadqiq etilayotgan korxonaga qay darajada investitsiya kiritish lozimligi yoki texnologiyani yangilash zarurligi aniqlanadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishdagi cheklarlar va muammolarni oldindan aniqlash orqali eksport rejalarini xavfsiz amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Ishlab chiqarish salohiyatini aniqlashda uni belgilab beruvchi indikatorlar baholanadi (1-jadval).



1-jadval. Eksport salohiyatini aniqlashda ishlab chiqarish faoliyatini baholash usullari

No	Indikatorlar nomi	Formulasi	Tavsifi
1.	Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti	$Q = \frac{I_{ch}}{J_{ch}} \times 100$ $I_{ch} - amaldagi ishlab chiqarish hajmi;$ $J_{ch} - jami ishlab chiqarish quvvati.$	Korxonaning mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan qay darajada foydalayotganini ko'rsatadi. Ya'ni, real ishlab chiqarish hajmi quvvatga nisbatan necha foizni tashkil etadi.
2.	Zamonaviy texnologiyalar ulushi	$T = \frac{Z_t}{J_t} \times 100$ $Z_t - zamonaviy uskunlar qiymati;$ $J_t - Jami uskunlar qiymati.$	Korxonadagi umumiy texnologik bazada qay darajada yangi va zamonaviy uskuna mavjud ekanini ko'rsatadi. Yangilanish darajasi va modernizatsiya salohiyati baholanadi.
3.	Mahsulot sifati indeksi	$S = \frac{S_1 + S_2 + \dots + S_n}{n}$ $S\% = \frac{S}{10} \times 100$ $S_1, S_2, \dots - har bir parametr bo'yicha baholangan ball (odatda 10 balllik shkalada);$ $n - parametrlar soni.$	Bu usul mahsulot sifatini tashkil etuvchi asosiy parametrlar bo'yicha berilgan ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini hisoblashga asoslanadi.
4.	Innovatsiya faolligi	$I = \frac{Y_t}{J_t} \times 100$ $Y_t - yangi joriy etilgan texnologiyalari soni;$ $J_t - ishlab chiqarishdagi umumiy texnologiyalar soni$	Ushbu usulda korxonaning innovatsion faolligi uning yangi texnologiyalarni joriy etish darajasi orqali baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida ishlab chiqarish faoliyatining eksport salohiyatiga ta'sirini aniqlash uchun ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, zamonaviy texnologiyalar ulushi, mahsulot sifati indeksi va innovatsion faollik darajasi asosiy omillar sifatida baholandi. Baholash jarayoni ta'sir matritsasi (Influence Matrix) va ko'p mezonli baholash usuli orqali amalga oshirildi.

Ta'sir matritsasi yordamida o'rganilgan omillarning o'zaro bog'liqligi quyidagicha aniqlangan (2-jadval):

2-jadval. Ta'sir matritsasida o'rganilgan omillarning o'zaro bog'liqligi

No	Omillar	IQFK	ZTU	MSI	IFD
1.	IQFK	-	0.6	0.4	0.5
2.	ZTU	0.3	-	0.7	0.6
3.	MSI	0.2	0.4	-	0.5
4.	IFD	0.3	0.5	0.6	-

Ushbu natijalar asosida aniqlanishicha, zamonaviy texnologiyalar ulushi (ZTU) va innovatsion faollik darajasi (IFD) eng katta ta'sirga ega bo'lgan omillar hisoblanadi. Ularning yuqori darajada rivojlanganligi korxonaning mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish quvvatidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Kompozit indeks asosida eksport salohiyatining shakllanishida omillar quyidagi ulushlarda ishtirot etgan:

- Zamonaviy texnologiyalar ulushi — 35%;
- Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish — 25%;
- Innovatsion faollik — 22%;
- Mahsulot sifati indeksi — 18%.

Bu taqsimot eksportga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishda ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va innovatsion faollikni kuchaytirish birinchi darajali ustuvor vazifa ekanini ko'rsatadi.

Tanlab olingan 10 ta korxonaga oid real ma'lumotlar asosida aniqlanishicha:

- Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi 63% dan 87% gacha bo'lgan (o'rtacha — 74%);



- Innovatsion faoliik ko'rsatkichi 100 ballik tizimda o'ttacha 58 ballni tashkil qilgan;
- Zamonaviy texnologiyalar ulushi yuqori bo'lgan korxonalarda eksport hajmi o'ttacha 28% ko'proq bo'lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini baholash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xususan, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi, texnologik tayyorgarlik, mahsulot sifati va innovatsion faoliik kabi mezonlar eksportga yo'naltirilgan strategik qarorlar qabul qilishda muhim omillar hisoblanadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan Influence Matrix asosida ushbu omillar o'zaro murakkab strukturaviy bog'liqlikka ega ekani aniqlandi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar ulushi va innovatsion faoliik eksport salohiyatiga eng yuqori ta'sirga ega omillar sifatida ajralib turdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish imkoniyatlari yuqori bo'lgan korxonalar eksport bozorlarida muvaffaqiyatlari faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lib, bunda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining raqamli va indeksli baholanishi strategik rejalashtirishda aniq yo'nalishlar beradi.

Tadqiqot davomida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini muntazam baholab borish. Korxonalar o'z ishlab chiqarish quvvati, texnologik darajasi va mahsulot sifati bo'yicha statistik va indekslash asosida baholash tizimini joriy etishlari lozim.
2. Zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish. Eksport salohiyatini oshirish uchun texnologik modernizatsiyaga investitsiyalarni kengaytirish va Industry 4.0 tamoyillarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.
3. Innovatsion faoliikni rag'batlantirish. Ilmiy-tadqiqot faoliyati va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish darajasini oshirish uchun grantlar, soliq imtiyozlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish tavsija etiladi.
4. Eksport strategiyasini ishlab chiqarish salohiyatiga asoslash. Har bir korxona o'z ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda moslashuvchan va segmentlashtirilgan eksport strategiyasini ishlab chiqishi zarur.
5. Integratsiyalashgan monitoring tizimini yo'lga qo'yish. Eksportga xizmat qiluvchi korxonalarda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan bog'liq monitoring tizimi orqali tezkor tahlil va samarali boshqaruvni ta'minlash maqsadga muvofiq.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davenport, T. H., & Harris, J. G. (2007). Competing on Analytics: The New Science of Winning. Harvard Business Press.
2. Monk, E., & Wagner, B. (2012). Concepts in Enterprise Resource Planning (4th ed.). Cengage Learning.
3. Buttle, F., & Maklan, S. (2019). Customer Relationship Management: Concepts and Technologies (4th ed.). Routledge.
4. Shapiro, C., & Varian, H. R. (1998). Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy. Harvard Business Press.
5. Okboev A.R., O.J.Ashurkulov Directions for the introduction of an integrated quality management system to increase the competitiveness of light industry enterprises // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). Vol.10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF#23 2020= 7.11. pp. 107-10.
6. Akboev, A. (2020). Upravlenie konkurentospособностю brendov na predpriyatiyax shveyno-trikotajnoy otrassli. Ekonomika i Obrazovanie, 1(6), 132-137.
7. Okboyev, AR (2020). Social Network Marketing and Its Developoment. International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS 2020), 7 (3), 38-42.
8. Rasuljanovich, OA (2023). EXISTING RROBLEMS IN INNOVATIVE DEVELORMENT OF NAMANGAN REGION AND THEIR SOLUTIONS. Conference, 19-24.
9. Oqboyev, A. (2024). Tadbirkorlik subektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish tahlili.
10. Oqboyev, A. (2025). Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasi. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT, 3(1).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100